

OZIQ OVQAT SANOATI KORXONALARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI

Jamoliddinov Jobirbek Boxodir o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22843462>

Received: 14 September 2026 • Accepted: 18 September 2026 • Published: 19 September 2026

Annotatsiya.

Tezisdagi oziq-ovqat sanoati korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini moliyaviy barqarorlik, likvidlik, rentabellik, ishlab chiqarish-resurs salohiyati hamda hisob-kitob va soliq intizomini birlashtiruvchi OOS-IXI integral indeksi orqali baholash yondashuvi yoritilgan. Metodika ikki korxonaning 2023–2025-yillardagi moliyaviy hisobotlari asosida sinovdan o'tkazilgan. Natijalar sotuv va likvidlikning o'sishi tannarx, zarar, zaxiralar aylanishi va aktivlar eskirishi kabi kritik cheklovlarni avtomatik bartaraf etmasligini ko'rsatdi. Vaznli geometrik agregatsiya kuchli bloklarning zaif yo'nalishlarni sun'iy qoplashini cheklaydi va integral bahoni aniq boshqaruv choralari bog'lash imkonini beradi.

Kalit so'zlar:

iqtisodiy xavfsizlik, oziq-ovqat sanoati, integral indeks, rentabellik, likvidlik, tannarx, risk-menejment.

Oziq-ovqat sanoati milliy iqtisodiyotning ijtimoiy va strategik ahamiyati yuqori bo'lgan tarmoqlaridan biridir. U aholining kundalik iste'mol ehtiyojlarini qondirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, hududlarda bandlikni oshirish va eksportbop tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishda muhim o'rin tutadi. Biroq korxonalar faoliyati xomashyo mavsumiyligi, mahsulotning tez buziluvchanligi, energiya va logistika xarajatlari, sanitariya talablari, import uskunalari bog'liqlik hamda talab tebranishlari kabi o'zaro bog'liq xavflar ta'sirida shakllanadi. Shu sababli iqtisodiy xavfsizlikni faqat foyda yoki likvidlik koeffitsiyenti orqali baholash korxonaning haqiqiy holatini to'liq aks ettirmaydi.

Ta'minot zanjiri barqarorligi bo'yicha tadqiqotlarda korxonaning uzilishlarga moslashishi, faoliyatini tiklashi va asosiy funksiyalarini saqlab qolishi iqtisodiy barqarorlikning muhim sharti sifatida qaraladi [1–3]. Korporativ risk-menejment yondashuvlari esa risklarni aniqlash, baholash, ularga javob choralari ishlab chiqish va monitoringni yagona boshqaruv jarayoniga birlashtirishni talab qiladi [4; 5]. Mazkur nazariy qarashlardan kelib chiqib, oziq-ovqat korxonasining iqtisodiy xavfsizligini ko'p blokli integral baholash maqsadga muvofiq.

Tadqiqotda tizimli tahlil, moliyaviy koeffitsiyentlar, min-max normallashtirish, dinamik taqqoslash va vaznli geometrik agregatsiya usullaridan foydalanildi. Empirik ma'lumotlar "HAMROH SNACKS" MChJ hamda "KOMRON-FAYZ-BIZNES" MChJning 2023–2025-yillardagi buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar va foyda solig'i hisobotlaridan olindi. Baholash tizimi beshta funksional blok va jami 20 ta indikatorni qamrab oldi: moliyaviy barqarorlik — 0,25; likvidlik va to'lovga qobiliyat — 0,20; rentabellik va samaradorlik — 0,25; ishlab chiqarish-resurs xavfsizligi — 0,15; hisob-kitob va soliq intizomi — 0,15.

Har bir indikator kritik va maqsadli chegaralar asosida 0–1 oralig'ida normallashtirildi. Qiymati ortishi xavfsizlikni oshiradigan ko'rsatkichlar stimulyator, ortishi xavfni kuchaytiradigan ko'rsatkichlar destimulyator sifatida baholandi. Bloklar bo'yicha olingan natijalar vaznli

geometrik o'rtacha orqali birlashtirildi. Yakuniy indeks $OOS-IXI = 100 \times K_{kritik} \times \prod B_j^{w_j}$ ko'rinishida hisoblandi. Bu yerda B_j — funksional blok balli, w_j — uning vazni, K_{kritik} esa zarar, to'lovga qobiliyatsizlik yoki yuqori resurs samarasizligi mavjud bo'lganda indeksni pasaytiruvchi koeffitsiyentdir. Geometrik agregatsiya past balli blokning ta'sirini saqlab qoladi va yuqori likvidlikning manfiy rentabellikni to'liq qoplashiga yo'l qo'ymaydi.

"HAMROH SNACKS" MChJda sof tushum 2023-yildagi 1 769 042,34 ming so'mdan 2025-yilda 2 617 518,67 ming so'mgacha oshgan. Shunga qaramay, tannarx sig'imi 76,50 foizdan 88,71 foizga ko'tarilgan, yalpi rentabellik 23,50 foizdan 11,29 foizga, sof rentabellik esa 11,98 foizdan -2,35 foizga tushgan. 2025-yilda asosiy vositalar eskirishi 70,86 foizga yetgan. Demak, savdo hajmining o'sishi yuqori xarajatlar va texnologik eskirish sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlamagan.

"HAMROH SNACKS" MChJ indeksi 2023-yilda 61,9 ball bilan "zaif barqarorlik" darajasida bo'lgan, 2024-yilda rentabellik blokining keskin pasayishi sababli 28,8 ballik "kritik" zonaga o'tgan. 2025-yilda moliyaviy mustaqillik va likvidlik yaxshilangan bo'lsa-da, zarar va tannarx bosimi indeksni faqat 39,9 ballik "xavfli" darajagacha tiklagan. Bu holat balans tuzilmasidagi ijobiy o'zgarishlar operatsion samaradorlik bilan mustahkamlanmasa, barqaror iqtisodiy xavfsizlik yuzaga kelmasligini ko'rsatadi.

"KOMRON-FAYZ-BIZNES" MChJda 2025-yil avtonomiya koeffitsiyenti 0,960 va joriy likvidlik 9,567 bo'lgan. Biroq zaxiralar 301 kun saqlangan, debitorlikni undirish davri 94,9 kun, kreditorlikni to'lash davri 114,4 kunni tashkil etgan. Natijada yuqori likvidlik iqtisodiy resurslarning samarali aylanishini anglatmagan va integral indeks 29,2 ballgacha pasaygan. Mazkur natija alohida moliyaviy koeffitsiyentlarga tayangan diagnostika noto'g'ri optimistik xulosaga olib kelishi mumkinligini tasdiqlaydi.

Amaliy boshqaruv nuqtayi nazaridan "HAMROH SNACKS" MChJda mahsulot turi, retseptura, xomashyo yetkazib beruvchi va sotuv kanali bo'yicha marjinal tahlil o'tkazish; tannarx sig'imini 85 foizdan pastga tushirish; 70 foizdan ortiq eskirgan uskunalarni yangilash dasturini shakllantirish zarur. Ikkinchi korxonada esa ABC-XYZ tasnifi, FIFO/FEFO nazorati, mijozlar kredit limitlari va debitorlik monitoringi orqali zaxira hamda hisob-kitob siklini qisqartirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Taklif etilgan OOS-IXI indeksi oziq-ovqat sanoati korxonasining iqtisodiy xavfsizligini faqat moliyaviy natija bilan emas, balki kapital tuzilmasi, likvidlik sifati, rentabellik, resurslardan foydalanish va hisob-kitob intizomi uyg'unligida baholaydi. Ikki korxona bo'yicha hisob-kitoblarni yuqori tushum, kapital mustaqilligi yoki likvidlikning o'zi xavfsizlikning yetarli sharti emasligini ko'rsatdi. Integral bahoni oylik va choraklik boshqaruv paneliga kiritish, kritik indikatorlar bo'yicha erta ogohlantirish chegaralarini belgilash hamda indeks darajasiga qarab differensial boshqaruv rejimini qo'llash tavsiya etiladi. Kelgusida metodikani 15–20 ta korxonaning 5–7 yillik panel ma'lumotlarida sinash, vaznlarni CRITIC yoki entropiya usuli bilan aniqlash va xavfsizlik chegaralarini statistik jihatdan kalibrlash lozim.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Christopher, M., & Peck, H. (2004). Building the resilient supply chain. *The International Journal of Logistics Management*, 15(2), 1–14. <https://doi.org/10.1108/09574090410700275>
2. Tang, C. S. (2006). Perspectives in supply chain risk management. *International Journal of Production Economics*, 103(2), 451–488. <https://doi.org/10.1016/j.ijpe.2005.12.006>
3. Ivanov, D., & Dolgui, A. (2020). Viability of intertwined supply networks. *International Journal of Production Research*, 58(10), 2904–2915. <https://doi.org/10.1080/00207543.2020.1750727>
4. Kaplan, R. S., & Mikes, A. (2012). Managing risks: A new framework. *Harvard Business Review*, 90(6), 48–60.
5. International Organization for Standardization. (2018). ISO 31000:2018 Risk management — Guidelines. Geneva: ISO.
6. Tomašević, S., Momčilović, M., Milenković, N., & Milić, D. (2024). Determinants of profitability of food enterprises. *Economics of Agriculture*, 71(2), 519–533. <https://doi.org/10.59267/ekoPolj2402519T>